




# PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA

xalqaro ilmiy-metodik jurnal

5(13)  
—  
2024





**ISSN 2181-3787**  
**E-ISSN 2181-3795**

**“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”**  
**xalqaro ilmiy-metodik jurnal**

**«ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ»**  
**международный научно-методический журнал**

**“PEDAGOGICAL ACMEOLOGY”**  
**international scientific-methodical journal**

**№5(13) 2024**

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023-yil 5-maydagi 337-qarori bilan **07.00.00 - tarix, 13.00.00 - pedagogika, 19.00.00 - psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruruiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.



### Jurnal haqida

*Jurnalga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi axborot va ommabiy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ommaviy axborot vositasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida 1672 raqamli guvohnoma berilgan.*

### "Pedagogik akmeologiya" xalqaro ilmiy-metodik jurnali

“Pedagogik akmeologiya” xalqaro ilmiy-metodik jurnaliga taqdim etilgan ilmiy maqolalarga qo‘yiladigan asosiy talablar falsafa doktori (PhD), fan doktori (DSc) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini xalqaro standartlar va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasi to‘g‘risidagi Nizom” talablari, shu jumladan elektron ilmiy-texnik jurnallarga qo‘yiladigan talablar tizimi hisoblanadi.

### «Педагогическая акмеология» международный научно-методический журнал

Основные требования к научным статьям, представляемым в международном научно-методическом журнале «Педагогическая акмеология» являются научные труды, рекомендованные для публикации основных научных результатов докторских (PhD), (DSc) диссертаций в соответствии с международными стандартами и «Положением о Высшей аттестационной комиссии» при Кабинете Министров Республики Узбекистан, в частности требования к электронным научно-техническим журналам.

### About the magazine

### “Pedagogical akmeology” international scientific-metodical journal

The main requirements for scientific articles submitted to the international scientific-metodical journal "Pedagogical akmeology" are scientific publications recommended for the publication of the main scientific results of doctoral (PhD), (DSc) dissertations in accordance with international standards and the "Regulation on the Higher Attestation Commission" Under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, including from templates in the system of requirements for electronic scientific and technical journals.

**Muassislar:** "Sadriddin Salim Buxoriy" MCHJ "Durdona" nashriyoti,  
Buxoro davlat pedagogika instituti

**Tahririyat manzili:** O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy

**Web-sayt:** [www.paresearchjournal.uz](http://www.paresearchjournal.uz)

**Bosh muharrir:**

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Bosh muharrir o'rinnbosari:**

Husenova Aziza Sharipovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Mas'ul kabit:**

Bafayev Muhiddin Muhammadovich, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

### **TAHRIR HAY'ATI:**

*Muqimov Komil Muqimovich, O'zR FA akademigi, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, O'zR FA akademigi, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Abdullahayeva Barno Sayfiddinovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Madzigon Vasilii Nikolayevich, akademik, pedagogika fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)*

*Maksimenko Sergey Dmitriyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Kiyev)*

*Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)*

*Kozubsov Igor Nikolayevich, pedagogika fanlari doktori, dotsent (Kiyev, Ukraina)*

*Mustafa Said Arslon, filologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)*

*Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*To'xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent*

*Muhitdinova Xadicha Sobirovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Niyozmetova Roza Hasanovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Sobirova Maxbuba Yusupjanovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*O'rayeva Darmonoy Saidaxmedovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Rahimov Sharof Amonovich, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent*

*Rasulov To'lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Hayitov Shodmon Axmadovich, tarix fanlari doktori, professor*

*To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Ibragimova Gulsanam Nematovna, pedagogika fanlari doktori, dotsent*

*Kadirov Xayot Sharipovich, pedagogika fanlari doktori, dotsent*

*Jalilova Saboxat Xalilovna, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent*

*Atabayeva Nargis Batirovna, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Xudoyqulov Xol Jumayevich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Jumaniyozova Muhabbat Husenovna, filologiya fanlari nomzodi, dotsent*

*Farmonova Shabon Muhamadovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Qo'ldoshev Rustambek Avezmurodovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent*

*Rajabov To'xtasin Ibodovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Qilichov Oybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori (DSc)*

*Abdullahayev Mehriddin Junaydulloyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Qodirov Rashid Hamidovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

*Toshtemirov Oybek Abidovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

6	19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI.....	211
	<b>Ulug‘ova Shahlola Musliddinovna.</b> Tadbirkor shaxsida ikkilamchi kasbiy faoliyatdan qoniqishi hissining o‘ziga xos xususiyatlari .....	211
	<b>Elov Ziyodullo Sattorovich.</b> Suitsid – insoniyat oldidagi global muammo sifatida .....	216
	<b>Xalilov Saloxiddin Arziyevich.</b> Zamonaviy dunyoda umumiy psixologiya va shaxsiy psixologiya sifatida ilmiy asoslar .....	220
	<b>Kudratov Akmaljon Ibodillayevich.</b> Shaxs ehtiyojlarini ma’naviy jihatdan shakllantirishning psixologik muammolari va yechimlari.....	225
	<b>Xudoyqulova Gulshoda Baxronovna.</b> O‘quv faoliyati jarayonida individual psixologik xizmat orqali shaxs xususiyatlariga ta’sir ko‘rsatish .....	229
	<b>Narziyeva Shaxnoza Rustamjon qizi.</b> O‘smirlardagi deviant xulq-atvorni korreksiyalashning pedagogik va psixologik usullari.....	233
	<b>Rustamova Go‘zal Xolmuhammad qizi.</b> Ilk o‘spirinlik davrida ijtimoiy intellekt shakllanish xususiyatlari ijtimoiy- psixologik muammo sifatida.....	236
	<b>G‘aybullayeva Dilnoza Muxammadjon qizi.</b> Oilaviy munosabatlarining o‘smir o‘z-o‘ziga bo‘lgan ishonchi hissini shakllanishiga ta’siri .....	239
	<b>Ходжаева Дильтоновоз Джумовна.</b> Психологические особенности учебной мотивации учащихся специализированных школ .....	246
	<b>Raximova Durdonova Ravshanbekovna.</b> Maktabgacha yosh davridagi bolalarda kognitiv jarayonlar rivojlanishining psixologik xususiyatlari .....	252
	<b>MUNOSABAT.....</b>	<b>256</b>

**Sattorova Shaxlola Jabborovna.** Boshlang‘ich sinf darsliklarini takomillashtirish xususida. 256

## SUTSID – INSONIYAT OLDIDAGI GLOBAL MUAMMO SIFATIDA

**Annotasiya.** O‘z joniga qasd qilish o‘ta muhim umuminsoniy muammolardan biridir. Suitsidal harakatlarning epidemiologik tahlili uning o‘sish sur’ati va sabablarini aniqlash hamda oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim omil hisoblanadi. Mazkur maqolada suitsidning kelib chiqishiga ta’sir etuvchi sabablar, jahonda va Respublikamizdagi statistik ma’lumotlar, o‘z joniga qasd qilishning yosh, jins, bo‘yicha dinamikasi hamda olib borilgan tadqiqotlar natijalarining tahlillari yoritildi.

**Kalit so‘zlar:** o‘z joniga qasd qilish, suitsidal xulq-atvor, suitsidal harakat, suiqasd, ruhiy inqiroz, JSST, statistika.

## САМОУБИЙСТВО - КАК ГЛОБАЛЬНАЯ ПРОБЛЕМА ПЕРЕД ЧЕЛОВЕЧЕСТВОМ

**Аннотация.** Самоубийство – одна из самых важных проблем общественного здоровья. Эпидемиологический анализ суицидальной активности является важным фактором отслеживать динамику ее развития, выяснять причины и разрабатывать необходимые мероприятия для проведения профилактических действий. В данной статье освещены причины, которые способствуют возникновению суицидального поведения, статистические данные нашей Республики и мира, динамика суицида по возрасту, полу, городу и областей так же представлены результаты исследований.

**Ключевые слова:** самоубийство, суицидальное поведение, суицидальное активность, психический кризис, ВОЗ, статистика.

## SUICIDE - AS A GLOBAL PROBLEM BEFORE HUMANITY

**Annotation:** Suicide - one of the most important public health problems. Epidemiological analysis of suicidal activity is an important factor to monitor the dynamics of its development, to investigate the cause and to develop the necessary measures for preventive action. This article highlights the reasons that contribute to the emergence of suicidal behavior, the statistics of our Republic and the world, the dynamics of suicide by age, sex, city and region also presented the results of research.

**Key words:** suicide, suicidal behavior, suicidal activity, mental health crisis, WHO, statistics.

Jamiyatdagi ijtimoiy sog‘lom muhitning ko‘rsatkichi aholining tug‘ilish darajasi, hayotning o‘rtacha davomiyligi va o‘lim holati bilan bevosita bog‘liqdir. Aholi o‘rtasidagi o‘lim holati tabiiy fiziologik faktorlar (kasallik, qarilik kabi) hamda zo‘raki o‘lim hodisalari (qotillik, jarohatlanish, yo‘l-transport hodisalari, o‘z joniga qasd qilish)dan iborat. So‘ngi yillarda o‘z o‘zini o‘ldirish zo‘raki o‘lim hodisalari orasida etakchi o‘rinni egallamoqda. Suitsidal hodisalar jamiyatdagi sog‘lom muhit, aholining ijtimoiy-psixologik holati, ma’naviy-axloqiy ruhiyati hamda iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etuvchi omillardan hisoblanadi.

Suitsid bu – ruhan sog‘lom shaxsnинг ixtiyoriy va aqliy ravishda o‘z joniga qasd qilish harakati bo‘lib, bir shaxsnинг psixologik inqirozga nisbatan individual yondashuvi yoki kechirilayotgan hayot ma’nosini yo‘qotish bilan bog‘liq ijtimoiy xulq-atvorning eng fojiali ko‘rinishlaridan biridir. O‘z o‘zini o‘ldirishga ya’ni, hayotiy faoliyatini to‘xtatishga oid ichki

(niyat, o‘ylangan reja) va tashqi (suiqasdga urinish) shakllarning barchasi suitsidal xulq-atvor deyiladi.

Kishi o‘zini o‘zi o‘ldirgan yoki o‘ldirishga uringan aksariyat holatlar shaxsning ruhiy inqirozga uchrashi bilan chambarchas bog‘liqidir. Bunday inqiroz insonni ruhan jarohatlab, shaxsiyatiga daxl qilgan muayyan hodisalar sababli qo‘zg‘algan o‘ta kuchli his-tuyg‘uni anglatadi. Mazkur holatda o‘z joniga qasd qilishga ahd qilgan kishi ongida «ortiq toqat qilib bo‘lmaydi» deb idrok etilgan vaziyatdan chiqib ketishning boshqa yo‘lini ko‘rsata olmaydi. Ruhiy inqiroz daf‘ atan, kuchli jazava ta’siri ostida yuzaga kelishi ham mumkin. Biroq ma’naviy tanglik, ko‘p holatlarda asta-sekin, turli salbiy his-tuyg‘ular uyg‘unlashib borgan tarzda shakllanadi, o‘zbek tili ta’biri bilan aytganda «pichoq suyakka borib etadi». Qaror topgan mojaroli vaziyat insonning o‘z joniga qasd qilishi bilan yakun topadigan xavfni yuzaga keltirishi mumkin. Bunda kishi, ushbu vaziyatni o‘z hayotida muhim ahamiyat kasb etadigan juda murakkab holat sifatida qabul qilib, o‘z imkoniyatlarini mojaroli vaziyatdan chiqib ketish uchun etarli emas, deb idrok etadi. Ayni paytda, umidsizlikka yuz tutib, o‘zini o‘zi o‘ldirish harakatini yagona to‘g‘ri yo‘l, deb topadi [1].

Suitsidal harakatlar ma’lum bir mamlakat, viloyat yoki millatga xos hodisa hisoblanar edi. Lekin, so‘ngi yillarda jahonning barcha mamlakatlarida o‘z joniga qasd qilish sur’atining o‘sishi kuzatilmoxda. Shuningdek, u 15-34 yosh guruh orasidagi o‘lim sabablaridan etakchisi hisoblanadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, kuniga 3 ming kishi, har yili esa 1 mln.dan ortiq kishi o‘z-o‘zini o‘ldiradi. O‘z joniga suiqaqlar soni yakuniga etkazilgan o‘z-o‘zini o‘ldirishlar sonidan 10 marta ortiq. Tadqiqotchilarining xulosalariga ko‘ra, haqiqatda suitsidlarning soni rasmiy statistik ma’lumotlardagi ko‘rsatkichlardan birmuncha yuqoridir. Bunda suitsidga oid hodisalarni milliy qadriyatlar, diniy yoki siyosiy nuqtai nazardan yashirib, aksariyat holatda “baxtsiz hodisa” sifatida ko‘rsatilishi asosiy sabablardan hisoblanadi.

Umumjahon standart ko‘rsatkichlariga muvofiq 100.000 aholi soniga 10 tadan kam suitsid hodisasining qayd etilishi past darajali, 10 dan 20 gacha – o‘rta, 20 dan 30 gacha – yuqori va 30 dan ortiq bo‘lsa juda yuqori darajali deb baholanadi.

Jahon sog‘lijni saqlash tashkiloti tomonidan keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Lotin Amerikasi, Arabiston va Osiyo mamlakatlarida suitsid ko‘rsatkichlari nisbatan past darajada hisoblanadi. O‘rta darajaga Shimoliy Evropa, SHimoliy Amerika, Janubi-SHarqiy Osiyo va Tinch okeanining G‘arb qismidagi mamlakatlar kiritiladi. Suitsid ko‘rsatkichi SHarqiy Evropa mamlakatlarida yuqori. Shu nuqtai nazardan qaraganda, rivojlangan Evropa davlatlarida mazkur muammo o‘ta dolzarb hisoblanadi.

Suitsidal xulq-atvorning rivojlanishiga bir qator faktorlar ta’sir etadi: kishining jinsi, yoshi, yashash joyi, kasbi, oilaviy holati, sog‘lig‘i. Suitsidning sababi esa odatda chuqurroq bo‘lib, aynan ushbu omil o‘z joniga qasd qilish harakatlarini yuzaga kelishida hal etuvchi ahamiyat kasb etadi. Mazkur omillar – yolg‘izlik, oilaning buzilishi, yaqin kishisining vafot etishi, jazodan qo‘rqish, muvaffaqiyatsizlikka uchrash, davosiz kasalliklar, o‘zini keraksiz his etish, qarilikdagi jismoniy imkoniyatning cheklanishi kabi sabablardan iborat bo‘lib, ularning orasida iqtisodiy qiyinchiliklarning ulushi nihoyatda kam. Moddiy etishmovchilik va suitsidal harakatni amalga oshirish ehtimoli o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlik kuzatilmaydi. Bu esa o‘z navbatida suitsidni yuzaga kelishida iqtisodiy omillarning ta’siri faqat bilvosita ko‘rinishga egaligidan dalolat beradi. Shuningdek, o‘z-o‘zini o‘ldirish xavfi alkogolizm va narkomaniya bilan kasallanganlarda juda yuqori bo‘lib, suitsidlarning 30%ini tashkil etadi.

Mutaxassislar suitsid holatlarini o‘rganish natijasida o‘z joniga qasd qilish hollarining o‘sishi iqtisodiy rivojlanish sur’atiga to‘g‘ri proporsional ekanligini aniqlashgan. Xususan, tadqiqotchilardan S.V.Borodin va A.S.Mixlinlar jahonning 43 ta davlatida qayd etilgan suitsid holatlarining tahliliga asoslanib, suitsid holatlarining sodir etilishi va aholining moddiy yashash sharoiti o‘rtasida uzviy bog‘liqlik bor, degan xulosaga kelishgan. Aholining yashash darajasi Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlariga nisbatan sezilarli darajada baland bo‘lgan Evropa davlatlarida o‘z-o‘zini o‘ldirish holatlari ko‘proq uchraydi.

Tadqiqotchilar suitsidning yuzaga kelishida ijtimoiy-madaniy omillarning ta’siri uzoq davrlar mobaynida o‘zining turg‘unligi bilan ajralib turishiga e’tibor qaratadilar. Ular ichida diniy

218

omilning o'rni salmoqlidir. Masalan, musulmon davlatlarida protestan va katolik dinlari tarqalgan hududlarga nisbatan suitsid hollari ancha kam uchraydi. Katoliklar ko'pchilikni tashkil etgan davlatlarda o'zini o'ldirish hodisasi protestantlar keng tarqalgan mamlakatlarga nisbatan sezilarli darajada kamdir. Ayrim olimlar suitsid sodir etilishida fasllarga ham e'tibor qaratganlar. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, bahor va yoz mavsumlarida suitsid holatlari ko'proq uchraydi.

Jinsga nisbatan qiyosiy tahlillar natijalariga ko'ra, o'z joniga qasd qilish erkaklarda ayollarga nisbatan uch baravar ko'pdir. Lekin suitsidal urinishlar erkaklarga nisbatan ayollarda yuqori hisoblanadi. Faqat Xitoy mazkur ko'rsatkichdan mustasno bo'lib, unda erkaklarga nisbatan ayollar o'rtasida ko'proq suitsid holatlari qayd etilgan.

Suitsidal faktorlar qatorida yosh ham muhim ahamiyat kab etadi. 54 ta mamlakatda olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, ikki toifa: 15-24 va 65-74 yoshdagilar suitsid holatlarining aksariyatini tashkil etadi. 1995 yilga qadar 65-74 yoshdagagi keksalar o'rtasida o'z joniga qasd qilish 15-24 yoshdagilarga nisbatan uch baravar ko'p qayd etilgan. Lekin, so'nggi yillarda mazkur ko'rsatkich o'zgarib, yoshlar orasida suitsid holatlari oshib bormoqda.

Yurtimizda ham suitsid mavzusiga bag'ishlangan salmoqli ishlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlar asosan parasuitsid, ya'ni o'zini-o'zi o'ldirishga harakat qilish muammolarini o'rganish bilan bog'liq bo'lib, ularning aksariyatida suitsidal harakatni vujudga kelishida ahamiyatli bo'lgan omillar o'rganilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, jahonning barcha mamlakatlarida suitsidning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda, qonunlar qabul qilinmoqda hamda ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. O'z-o'zini o'ldirish holatlarining oldini olish Xalqaro assosiasiysi tuzildi, telefon orqali tez yordam ko'rsatish Xalqaro Federasiyasi tashkil etildi, o'tgan yilning o'zida suitsidga targ'ib qiluvchi yuzdan ortiq internet saytlarining faoliyati to'xtatildi, o'rtta va oliv ta'lim muassasalariga yuqori malakali psixologlar jalb qilinmoqda. Lekin staistik ma'lumotlarga ko'ra, o'z joniga qasd qilish hollari yildan-yilga ko'payib bormoqda. Olimlarning fikricha, bunga ba'zi kishilarning hayotni qadrlamasliklari, virtual hayotning kuchayib borishi natijasida jamiyatda paydo bo'layotgan ijtimoiy tarqoqlik, milliy qadriyatlarning unutilishi, atrofdagilarga bee'tiborlik va loqaydlik, insonlar orasida mehr-oqibatning kamayib borishi asosiy sabablardan hisoblanadi. Zero, biror kishida o'z joniga qasd qilish fikri daf'atan paydo bo'lmaydi.

Mutaxassislarining tavsiyalariga ko'ra, biror kishida o'z joniga qasd qilishga moyillik sezilganda unga jiddiy e'tibor berish kerak. Suitsid ham kasallik kabidir, uning alomatlari sezilganda tezda davolashga kirishish kerak. Mazkur holatda eng avval o'ziga ziyon etkazish vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin bo'lgan barcha ashyolarni masalan, pichoq, qaychi, piska, o'roq, arqon, dorilar, sirk, shuningdek, o't yoqish vositalarini berkitish zarur. Ehtiyyot chorasi sifatida, kasalni balandliklardan, masalan tomga chiqishi va baland derazalarning yoniga borishidan saqlash kerak. Bunday kishilarni yolg'izlatmaslik, aksincha ularga dalda bo'lish, mehr ko'rsatish, muammoga ob'ektiv yondashishni, qilayotgan ishini noto'g'ri ekani, har bir muammoning echimi borligini va hayot oliv ne'matligini tushuntirish lozim. Agar kasalning psixologik holati og'ir bo'lsa mutaxassisiga uchrashish zarur hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Elov Z.S. CAUSES AND ANALYSIS OF SUICIDAL THOUGHTS AMONG ADOLESCENTS. EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) Volume: 6 | Issue: 11 | November 2021 75-76

2. Elov.Z.S. Қадимги халқлар урф-одатлари ва ривожланган жамиятда ўз жонига қасд қилишнинг ижтимоий психологияк сабablari. Тарих ва бугун (қадимги халқлар урф-одатлари ва бугунги замон) JAMIYAT VA INNOVASIYALAR. 10.2021 169-173

3. Элов З.С. СУИЦИД - ЎЗ ЖОНИГА ҚАСД ҚИЛИШ ИЖТИМОЙИ ПСИХОЛОГИК МУАММО СИФАТИДА CONFERENCE ON SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH. International Conference on Social Humanitarian Research 17-18 th September, 2021 Poland 188-189

4. Элов З.С. ЗАМОНАВИЙ ЖАМИЯТДА СУИЦИД (ЎЗ ЖОНИГА ҚАСД ҚИЛИШ) МУАММОЛАРИ Eurasian journal of Law, Finance and Applied Sciences. 2(2021): EJLFAS 26-28
5. Z.Elov. QOBILYATNING SHAXS PSIXOLOGIYASIDAGI O'RNI VA DANNING-KRYUGER EFFEKTIPEDAGOGIK MAHORAT 2021/10/30 Номер 5 Страницы 143-144
6. Элов З.С. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ САМОУБИЙСТВ СРЕДИ СОТРУДНИКОВ ОВД. Психология XXI столетия. 2020 401-403
7. Elov Z.S. CONDITIONS AND THE REASONS OF CASES OF THE SUICIDE AMONG THE STAFF OF LAW-ENFORCEMENT BODIES European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 5 2017
8. Элов. З.С. ПРОФИЛАКТИКА САМОУБИЙСТВ СОТРУДНИКОВ ОВД. ВЕСТНИК ИНТЕРГАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ. 2017 208-212
9. Elov Z.S. Researches of the Reasons Conditions, Fastors of Suicide Rick Intellectual Archive Volume 5 Number 1. 2016. 49-53
10. Элов З.С. ПРИЧИНЫ СУИЦИДАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ: СОЦИАЛЬНЫЕ И АСОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ. ВЕСТНИК ИНТЕРГАТИВНОЙ ПСИХОЛОГИИ 2016 14/112-115
11. Элов З.С. СУИЦИДАЛ ХУЛҚ ШАКЛЛАНИШИ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК МУАММО СИФАТИДА (ички ишлар идоралари ходимлари мисолида). PSIXOLOGIYA. 3(23) 2016. 62-72
12. Элов З.С. ИССЛЕДОВАНИЯ ПРИЧИН УСЛОВИЙ, ФАКТОРОВ СУИЦИДАЛЬНОГО РИСКА. Евразийский юридический журнал. 7 (86) 2015. 310-312
13. Элов З.С. СУИЦИДАЛ УРИНИШЛАРНИ СОДИР ЭТИШГА САБАБ БЎЛУВЧИ АСОСИЙ ОМИЛЛАР (Ички ишлар органлари ходимлари мисолида). PSIXOLOGIYA. 2(18) 2015. 82-87
14. Элов З.С. ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СУИЦИДАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ. PSIXOLOGIYA. 4(16) 2014. 20-24

**Buxoro davlat pedagogika instituti muassisligidagi  
“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA”  
xalqaro ilmiy-metodik jurnali  
barcha ta’lim muassasalarini  
hamkorlikka chorlaydi.**

**“PEDAGOGIK AKMEOLOGIYA” xalqaro ilmiy-metodik jurnalida o‘zbek, rus, ingliz tillarida maqolalar chop etiladi.**

**Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy  
Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat rekvizitlari:**

«Садриддин Салим Бухорий» МЧЖ  
Манзил: Бухоро, Мухаммад Иқбала кўчаси, 11  
Р/с 20208000104858465002  
Бухоро шаҳри Ҳамкорбанк МФО 00966  
ИНН 301637939 ОКХ 87100

**PEDAGOGIK  
AKMEOLOGIYA**

**Xalqaro ilmiy-metodik jurnal  
2024-yil 5-son (13)**

**2022-yil avgust oyidan  
chiqa boshlagan.**

**Нашр индекси:  
1397**

**Buxoro davlat universiteti nashri**

Jurnal davlat va nodavlat oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, kasb-hunar maktablari hamda maktab o‘qituvchilar, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

**Nashr uchun mas’ul:  
Alijon HAMROYEV.  
Musahhih: Muhiddin BAFAYEV.**

Jurnal tahririyat kompyuterida sahilandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 06.09.2024  
Bosmaxonaga topshirish vaqtiga  
10.09.2024  
Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8  
Tezkor bosma usulda bosildi.  
Shartli bosma tabog‘i – 32,0  
Adadi – 100 nusxa  
Buyurtma № 580.  
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Buxoro shahri  
M.Iqbol ko‘chasi 11-uy.